

Buxoro viloyatida Kichik tadbirkorlik

Yanvar-iyun
2019 yil


E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdag'i ulushi 71,1 %ni tashkil etdi.
- 3750 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar iyun holatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 9,5 birlikni tashkil qiladi.

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yilning yanvar-iyunida 3750 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 baravarga ko'p demakdir. Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (34,8 %), sanoat tarmog'ida (23,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (8,4 %), qurilishda tarmog'ida (10,3 %), yashash va ovqatlanishda (9,5 %), tashish va saqlashda (4,2 %) tashkil etilgan.

2019 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'Ichov birligi	2018 y.	2019 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlik	13755	18149	4394
Yangi tashkil etilgan kichik korhona va mikrofirmalar	birlik	1550	3750	2200
YaHM	%	78,4	71,1	-7,3
Sanoat	%	42,1	29,8	-12,3
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,4	99,1	-0,3
Investitsiya	%	28,4	56,6	28,2
Qurilish	%	84,7	87,6	2,9
Savdo	%	89,3	85,6	-3,7
Xizmatlar	%	73,9	69,8	-4,1
Yuk tashish	%	91,1	92,7	1,6
Yuk aylanmasi	%	83,0	86,2	3,2
Yo'lovchi tashish	%	96,9	96,1	-0,8
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,8	96,8	0
Eksport	%	42,4	61,3	18,9
Import	%	31,1	47,9	16,8


**SHahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona
va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-iyun 2018y.	yanvar-iyun 2019 y.
Buxoro viloyati	1550	3750
Buxoro sh.	492	1175
G'ijduvon	124	463
Romitan	165	304
Jondor	99	291
Buxoro	88	251
Shofrikon	98	235
Vobkent	67	185
Qorako'l	78	155
Kogon	85	171
Peshku	95	165
Olot	49	132
Kogon sh	65	150
Qorovulbozor	45	73

2019 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Buxoro shahrida - 1175 ta, G'ijduvon tumanida - 463 ta, Romitan tumanida - 304 ta. Eng past ko'rsatkichni Qorovulbozor tumanida— 73 ta,Olot tumanida - 132 ta va Kogon shahrida - 150 tani tashkil etgan.

**2019 yil yanvar-iyun holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalarning shahar-tumanlar
bo'yicha ulushi**



2019 yil yanvar-iyun holatiga shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Buxoro.shahrida - 31,3 %, G'ijduvon tumani - 12,4 % Romitan tumani - 8,1 %, Jondor tumani – 7,8 %, Buxoro tumani – 6,7 %, Shofrikon tumani 6,3 %, Vobkent tumani - 4,9 % ,Kogon tumani - 4,6 % , Peshko' tumani - 4,4 %, Qorako'l tumani - 4,1 %, , Kogon shahar - 4,0 %, Olot tumani - 3,5 % va eng past ko'sat-kich Qorovulbozor tumanida - 1,9 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-iyun 2018 y.	yanvar-iyun 2019 y.
Jami	1550	3750
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	272	315
Sanoat	265	890
Qurilish	237	387
Savdo	264	1306
Tashish va saqlash	56	157
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	139	356
Axborot va aloqa	31	26
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	55	44
Boshqa turdag'i xizmatlar	231	269

2019 yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p tashkil etgan:

Savdoda - 1306 ta.;


Sanoatda –890 ta.;

Qurilishda –387 ta.;

Yashash va ovqatlanishda -356 ta.;

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida –315 tani tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar to'g'risida ma'lumot



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar savdoda –1306 ta, sanoatda –890 ta, qurilishda - 387 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 356 ta, qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligida –315 ta, boshqa turdag'i xizmatlar 269 ta,tashish va saqlashda –157 ta, sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda –44 ta axborot va aloqada - 26 tani tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

birlikda

	yanvar-iyun 2018 y.	yanvar-iyun 2019 y.	farq (+-)
Buxoro sh.	492	1175	683
G'ijduvon	124	463	339
Romitan	165	304	139
Jondor	99	291	192
Buxoro	88	251	163
Shofrikon	98	235	137
Vobkent	67	185	118
Kogon	85	171	86


2019 yil yanvar-iyunida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Buxoro shahrida –683 taga, G'ijduvon tumanida –339 taga, Jondor tumanida - 192 taga, Romitan tumanida bu ko'rsatkich—139 taga o'sishni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkichni Qorovulbozor tumanida— 28 taga , Olot tumanida— 83 taga va Kogon shahrida - 86 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2019 yilning 1-iyul holatiga kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni(har 1000 aholiga, birlikda) tumanllar va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Buxoro shahrida 22,1 birlikda, Qorovulbozor tumani 17,8 birlikda, Kogon tumanida 11,9 birlikda, Kogon shaharda 10,9 birlikda ,Romitan tumanida 10,3 birlikda va Peshko' tumanida 8,6 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich birlik oralig'ida Buxoro tumanida 7,9 birlikda, Jondor tumanida 7,2 birlikda, G'ijduvon tumanida 6,4 birlikda, Shofrikon 6,0 birlikda, Qorako'l tumanida 5,2 birlikda tumanlarida aniqlandi. Vobkent tumani 5,7 birlikda va Olot tumanida 5,1 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

Tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).




Agar, 2018 yilning 1 iyulda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 7,3 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 9,5 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 2,2 birlikka ko'paydi.

**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.**




Quyida, 2019 yilning yanvar-iyunida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 29,8%, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida-99,1%, qurilishda-87,6 %, investitsiyada-56,6%, savdoda-85,6%, eksportda-61,3%, importda -47,9% va xizmatlar sohasidagi 69,8 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2019 yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi 71,1 % ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-iyunida 78,4 %). YaHM tarkibida pasayishga olib kelgan.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining dinamikasi yanvar-iyun holatiga, %



Kichik tadbirkorlikninig ulushi
(umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2019 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning
shahar va tumanlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Buxoro viloyati	29,8	87,6	69,8	56,6
Buxoro shahar	64,3	90,7	59,3	62,0
Kogon shahar	23,0	98,8	84,7	22,5
Tumanlar				
Olot	45,6	70,6	87,7	25,9
Buxoro	66,0	88,7	96,5	70,7
Vobkent	100,0	100,0	90,5	81,8
G`ijduvon	54,9	100,0	92,8	88,6
Kogon	97,1	92,4	83,2	79,2
Qorako'l	50,7	87,9	97,9	74,1
Qorovulbozor	1,0	25,2	35,8	57,6
Peshko'	43,1	100,0	92,5	89,8
Romitan	17,3	88,8	92,7	15,1
Jondor	39,5	100,0	90,2	84,7
Shofirkon	79,4	92,6	89,5	77,5

Shahar va tumanlar kesimida **sanoat** sohasining yuqori ulushini Vobkent (100 %), Kogon (97,1 %) va Shofirkon (79,4 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Vobkent (100 %), G`ijduvon (100%),Jondor (100 %) Peshko' (100 %) tumanlarida va Kogon shahrida (98.8 %) ni tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qorako'l (97,9 %), Buxoro (96,5 %), G`ijduvon (92,8 %), Romitan (92,7 %), va Peshku (92,5 %) tumanlari tashkil etadi.


Investitsiya sohasida Peshko' (89,8 %) , G`ijduvon (88,6 %), Jondor (84,7 %) tumanlarni tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2019 yilning yanvar-iyunida




- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2100,3 mlrd.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 29,8 %); yoki 2018-yilning yanvar-iyunga nisbatan sanoat maxsuloti indeksi 106,9%ni tashkil qildi;
- 2 2842,9 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi hajmining 56,6 %) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 182,6%ni tashkil qildi;
- 3 2011,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 87,6 %) bajarildi va 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 121,6 %ni tashkil qildi;
- 4 2482,9 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 69,8 %), 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 %ni tashkil qildi;
- 5 chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 85,6 % yoki 4040,6 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 103,1 %ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 6 92,5 mln. AQSH dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 61,3 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 49,3 mln. AQSH dollariga yoki 2,1 barobarga ko'p;
- 7 avtomobil transporti yuk aylanmasining 8,7 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 86,2 %) ko'payishi ta'minlanadi;
- 8 yo'lovchi aylanmasining esa 2,3 %ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 96,8 %) ko'payishi ta'minlandi.

Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning, jami eksport hajmi-dagi ulushi, %



2019 yil yanvar-iyun holatiga shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Vobkent tumani - 100%, Kogon tumani - 100%, Peshku tumani –100%, Romitan tumani – 100%, Buxoro tumani –90,1%, Shofrikon tumani - 78,0%, Buxoro shahar 73,3%, Qorako'l tumani - 55,6%, Olot tumani–51,3% Jondor tumani –43,1% G'ijduvon tumani-42,4%, eng past ko'rsatkichni Kogon shaharida -12,4 % va Qorovulbozor tumani - 6,5 %, ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-iyunda shahar va tumanllar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (500,2 mlrd. so'm), Kogon tumani (236,7mlrd. so'm), G'ijduvon tumani (236,7 mlrd.so'm) va Vobkent (223,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Peshko' (59,1 mlrd. so'm) va Qorovulbozor tumaniida (31,3 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2019 yil yanvar-iyun holatiga jami sanoat maxsulotidagi kichik tadbirkorlikning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi, %



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Vobkent tumani (100 %), Kogon tumani (97,1 %), Shofirkon tumani (79,4%), Buxoro tumani (66 %), Buxoro shahri (64,3 %), G'ijduvon tumani (54,9 %) va Qo'rako'l tumani (50,7 %). Romitan tumani (17,3%) va Qorovulbozor tumanlarida (1,0 %) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.


2019 yil yanvar-iyunida shahar va tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



SHahar va tumanlar bo`yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (1208,1 mlrd.so'm), G'ijduvon (706,1 mlrd.so'm), Qorako'l (461,9 mlrd.so'm), Romitan (292,6 mlrd.so'm), va Jondor (247,3 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2019 yil yanvar-iyunida shaharlар va tumanlар bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va sura'ati



Shahar va tumanlар bo'yicha eng ko'п bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro shahri (465,7 mlrd.so'm), G'ijduvon (242,7 mlrd.so'm), Buxoro (178,2 mlrd.so'm) va Kogon (193,2 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.




2019 yil yanvar- iyunida shahar va tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Shahar va tumanlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Buxoro shahri (1358,1 mlrd.so'm), G'ijduvon (292,2 mlrd.so'm) va Buxoro (113,5 mlrd.so'm), Vobkent (100,9 mlrd.so'm) va Romitan (91,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2019 yil 2 - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 191 ta respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari - 44 (ishtirok etgan respondentlarning umumiyligi sonidan 23,0 %), qurilish -19 (10,0 %), savdo - 64 (33,5 %), xizmatlar sohasi –44 (23,0%), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 20 (10,5%) tashkil etdi.

**2019 yil II - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**




Shahar va tumanlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning ulushi Buxoro shahrida—34,0 %, G'ijduvon tumanida –11,5%, Romitan tumanida –8,4 %, Kogon tumanida –6,8 % Shofirkon tumani –6,3 %, Buxoro tumani– 6,3%, Kogon shahrida- 5,2 % Peshku tumanla –4,2 % Qorako'l tumani– 4,2% Jondor tumanı –3,7% Qorovulbozor-3,7 % Vobkent tumani –3,1 %. va Olot tumani - 2,6% ni tashkil qildi.

2019 yil II– chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlik




2019 yil II– chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, %



Kuzatuv ma'lumlotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 26,3 % iqtisodiy vaziyatni - qulay va 47,4 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida - 48,4 % va 42,2 %, Xizmatlar sohasida-61,4 % va 22,7 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 35 % va 40 %, sanoatda - 41,0 % va 38,6 % ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda- 20,4 %, qurilishda - 26,3 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 25 %, xizmatlarda - 15,9 % va savdoda - 9,4 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil II-chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 72,7 % sanoat korxonalari, 78,1 % - savdo, 79,5 % - xizmatlar, 70 % - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 73,7 % - qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Buxoro viloyat Ishbilarmonlik muhiti
kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish
statistikasi bo'limi: nashr uchun mas'ul
F.Hakimova**

**Tel: (0371).230-83-03
(0365) 223-81-96**